

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

1/2023



E-ISSN 2181-1466

9 772181146004

ISSN 2181-6875

9 772181687004

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
ANIQ VA TABIIY FANLAR *** EXACT AND NATURAL SCIENCES *** ТОЧНЫЕ И ЕСТЕСТВЕННЫЕ НАУКИ		
Rasulov T.H., Dilmurodov E.B.,	Kompakt qo‘zg‘alishli umumlashgan Fridrixs modelining ba’zi spektral xossalari	4
Ismoilova D.E.	Fermionli fok fazodagi uchinchi tartibli operatorli matritsaga mos kanal operator va uning spektri	9
Jumaev J.J., Tursunova S.F., Ibragimova Sh.E.,	Inverse coefficient problem for heat equation in the bounded domain	15
Djurayev D.R., Turayev A.A., To`rayev O.G.	Bi _{1.7} Pb _{0.3} Sr ₂ Ca _n Cu _{n-1} O _y vismut asosli kupratlarning olinish texnologiyasi	21
Umarov Sh.A.	Shifrlash algoritmlarida kriptobardoshli mantiqiy amallardan foydalanish usullari	25
Ахмедов О.С.	Свободные и вынужденные осесимметричные колебания систем вязкоупругих цилиндрических оболочек	30
Исломов Б.И., Жураев Ф.М.	Краевые задачи с условием Геллерстедта на параллельных характеристиках для вырождающегося нагруженного уравнения параболо-гиперболического типа	34
Амироров С.Ф., Шаропов Ш.А., Сатторов Т.А.	Дифференциал трансформатор датчиклар оддий ва маҳсус структурали ночилик магнит занжирларининг математик моделлари	43
Турдиев X.X., Суяров Т.Р., Наврузова М.Н.	Начально-краевая задача для системы интегро-дифференциальных гиперболических уравнений	50
Tosheva N.A.	Lower bound of the essential spectrum of a family of 3×3 operator matrices	57
Akramova D.I.	Estimates for convolution operators related to A_∞ type singularities	63
Jo‘raqulova F.M.	Bozonli fok fazodagi operatorli matritsaga mos Faddeyev tenglamasi	72
Rasulov T.H., Ne’matova Sh.B.	Umumlashgan Fridrixs modeli kvadratik sonli tasvirining komponentlari	77
Seytov Sh.J., Ochilova G.B.	Баъзи даврий реакцияларнинг математик моделлари	82
Sirliyeva F.A., Khudaybergenov K.K., Muminov Z.E.	Fuzzy neural network and agent technologies in the structural-parametric modeling of technological systems	87
Tosheva N. A., Qodirov S. O.	Python dasturlash tili yordamida matritsa sonli tasvirini kompleks tekislikda tasvirlash algoritmi	93
Хасанов И.И., Хасанов К.Х.	Начально-краевая задача для адвекции - дисперсионного уравнения дробного порядка	100
Husenov B. E.	Poisson representation for $A(z)$ -harmonic functions belonging to some class	107
TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ		
Nigmatova L. X.	Lisoniy sistemaning pog‘onaviyligi va unda gipo-giperonimik munosabatlari	116
Sadigova S.I.	Phraseological combinations with ordinal numbers in English	123
Abdulxayrov D.P.	-Gan ekan shaklining mazmuniy ko‘rinishlari	127
Xodjayeva D.I., Hoshimova G.M.	Erkin Vohidov she’rlarida ritorik so‘roq gaplarning o‘ziga xos xususiyatlari	131

**LISONIY SISTEMANING POG'ONAVIYLIGI VA UNDA GIPO-GIPERONIMIK
MUNOSABATLAR**

Nigmatova Lolaxon Xamidovna,
Buxoro davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari doktori (DSc)
l.x.nigmatova@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada lisoniy sistemaning pog'onaviy ko'p qavatli iyerarxik va nisbiy gipo-giperonimik munosabatlari haqida yoritib bergan. Lisoniy sistema boshdan oyoq birinchi bosqichdan eng quyi bosqichlargacha qat'iy sistemaviy qurilish tabiatiga ega. Hatto alohida bir leksemaning sememalari, ularda semalar tarkibi, sememaning nutqda o'z va ko'chma ma'nolarda voqelanishi, nutqiy leksik-semantik variantlarning leksema sememasiga munosabati sistemaviy tabiatga ega. Shuningdek, fonemalarda invariant-variant munosabatlarda ham, grammatic shaklning umumiyligini va xususiy ma'nolari orasidagi munosabatlarda ham zikr etilgan tadqiqotchilar tomonidan sistemaviylik mavjudligi ochib berilgan. Bundan biz qat'iy xulosa chiqara olamizki, o'zbek tili umumiyligini lisoniy sistema bosqichidan leksikada so'zning semantik variantigacha, fonologiyada fonemaning variantigacha, grammatic shaklning xususiylikkacha.

Kalit so'zlar: lisoniy sistema, gipo-giperonimik munosabatlari, privativlik munosabatlari, bosqich, sistema, pog'ona, derivatsion vositalari, grammatic sath, leksik sath, leksik-semantik variantlar.

Аннотация. В данной статье рассматриваются проблемы многоуровневых иерархических и релятивных гипо-гиперонимических отношений языковой системы. В связи с тем, что частные отношения проявляются в отношениях каждого компонента, который выделяется в иерархическом делении этого целого с другими частями на этом уровне, мы узнаём об основных ступенях этой иерархии и единицах, которые выделяются на каждом уровне. Язык также носит строго системный характер построения от первого до высших уровней. Даже семы отдельной лексемы, состав сем в них, проявление семемы в речи в собственном и переносном значениях, отношение речевых лексико-семантических вариантов к семеме носят системный характер. Таким образом, узбекский язык так же построен на системности.

Ключевые слова: языковая система, гипо-гиперонимические отношения, привативные отношения, стадия, система, ступень, словообразовательные средства, grammatic level, лексический уровень, фонетический уровень, лексико-семантические варианты.

Abstract. This article sheds light on the multi-level hierarchical and relative hypo-hyperonymic relations of the linguistic system. the linguistic system has the nature of strict systematic construction from the first level to the lowest levels. Even the semes of a separate lexeme, the composition of semes in them, the manifestation of the sememe in speech in its own and figurative meanings, the relationship of speech lexical-semantic variants to the sememe of the lexeme have a systematic nature. Also, the existence of systematicity has been revealed by the mentioned researchers both in the invariant-variant relations in the phonemes and in the relations between the general and specific meanings of the grammatical form. From this we can draw a firm conclusion that the Uzbek language has developed from the stage of the general linguistic system to the semantic variant of the word in the lexicon, to the variant of the phoneme in phonology, and to the special form of the form in grammar.

Keywords: linguistic system, hypo-hyperonymic relations, privative relations, stage, system, step, derivational means, grammatical level, lexical level, phonetic level, lexical-semantic options.

Kirish. Lisoniy sistema – ko'p qavatli iyerarxik (pog'onaviy) va nisbiy gipo-giperonimik qurilishli murakkab butunlik. Privativlik munosabatlari bu butunlikning pog'onaviy bo'linishida ajralib chiqadigan har bir tarkibiy qismning shu bosqichdagi boshqa qismlar bilan munosabatlarda namoyon bo'lishi sababli biz bu iyerarxiyaning asosiy pog'onalarini va har bir pog'onada (bosqichda) ajralib chiqadigan birliklar haqida ma'lumotga ega bo'lishimiz lozim. Lisoniy sistemadagi pog'onaviylikni saqlagan holda biz bu bandda I-IV bosqich (pog'ona) va ularda ajralib chiqadigan birliklar tavsifini beramiz. Beshinchi va undan keyingi bosqich bo'linishlari va ularda ajraladigan birliklar uchinchi bobda ko'rib o'tiladi.

Tadqiqot metodologiyasi **I BOSQICH.** Inson uchun fikrni shakllantirish va uni ifodalashga xizmat qiluvchi lisoniy sistema fonologik-fonetik, leksik-semantik va grammatic vositalari majmuyiga bo'linadi. Har

bir majmuaning o‘ziga xos vazifasi va birliklari borligi hammaga ayon. Faqat shuni eslatib o‘tish lozimki, ayrim ishlarda alohida bir sath (tizimcha) sifatida uslubiy vositalar sathi ham ajratiladi. Nazarimizda, uslubiy vositalar lisoniy tizimda alohida, mustaqil bir sathni tashkil etmaydi, balki ustqurma, qo‘shimcha ma’no va yondosh vazifa (konnotatsiya) sifatida har bir sath birliklariga hamrohlik, yo‘ldoshlik qilib keladi. Shunga ko‘ra lisoniy sistemaning II va undan keyingi bosqichlarida – alohida fonema, morfema, leksemalargacha lisoniy birliklar uslubiy bo‘yoq dorlik (neytral)lik belgisi asosida korrelyatsiyalarini tashkil etadi. Shuning uchun stilistik vositalar majmuyi alohida bir sathni tashkil etmaydi. Demak lisoniy sistemaning birinchi bo‘linish pog‘onasida uch alohida, nisbiy mustaqillikka ega bo‘lgan birliklar – sathlar ajralib chiqadi. Bular 1) fono-fonetik, leksik-semantik va grammatik sathlardir.

II BOSQICH. Bu bosqichda fonologik -fonetik sath birliklari majmuyi ikki guruhga –

- a) bo‘linadigan (diskret, segment) birliklar – fonemalar,
- b) bo‘linmas (supersegment) birliklar majmualariga ajraladi. Supersegment fonologik-fonetik birliklar majmuyini urg‘u, ohang, ton kabi lisoniy vositalar tashkil qiladi.

Leksik-semantik sath esa bu bosqichda mustaqil so‘zlar va ko‘makchi (yordamchi) so‘zlar guruhlariga bo‘linadi. Grammatik sath birliklari bu bosqichda

a) so‘z yasovchilar (derivatsion vositalar);

b) so‘zlararo aloqalarni va o‘ta umumlashgan ma’nolarni ifodalovchi qo‘shimchalar (relyatsion qo‘shimchalar) – so‘zni nutqqa kiritishga moslovchi vositalar majmuyidan iboratdir.

Derivatsion vositalar leksika bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, yangi lug‘aviy ma’nolarni ifodalashga va hosil qilishga xizmat qiladi. Shunday bo‘linish natijasida II pog‘onada lisoniy sistema olti (6) majmuadan iborat bo‘linishni (fonemalar, supersegment vositalar, mustaqil leksemalar, ko‘makchi leksemalar, so‘z yasovchi qo‘shimchalar va relyatsion qo‘shimchalar) beradi.

III BOSQICH. Bu bosqichda II bosqichda ajralib chiqqan majmualar o‘z navbatida yangi bo‘linishlarni beradi. Jumladan:

1. Fonemalar majmuyi unlilar, undoshlar va sonorlarga, supersegment fonologik vositalar majmuyi esa bo‘g‘in va diskret vositalar (fonemalar)ga hamroh, xos vositalar va butun so‘z yoki gapga xos vositalar kabi guruhlarga bo‘linadi.

II. Leksik-semantik sathning mustaqil so‘zlar guruhi bu bosqichda deyktik (ishora) ma’noli olmoshlarga, voqeа-hodisalarni tasvirlash orqali atovchi–tasvirlovchi so‘zlarga va atovchi nomlovchilarga bo‘linadi.

Leksik sathning ko‘makchi (yordamchi) so‘zlar majmuyi bu bosqichda ikki guruhga – a) so‘z va gaplarni bog‘lashga xizmat qiluvchi bog‘lovchi va ko‘makchilarga, b) gap va so‘zlarga turli xildagi modal ma’nolar beruvchi vositalarga – yuklamalarga bo‘linadi.

III. Grammatik sathning derivatsion vositalar guruhi bu bosqichda bir turkumdan ikkinchi so‘z turkumiga o‘tkazuvchi va bir so‘z turkumi ichida yangi so‘z yasovchi vositalarga ajraladi.

Bu sathning relyatsion vositalar guruhi esa bu bosqichda so‘zlarning lug‘aviy shakllarini hosil qiluvchi qo‘shimchalar [1, B.64] va so‘zning sintaktik shakllarini hosil qiluvchi qo‘shimchalar majmuyiga ajraladi.

Natijada III bosqichda II bosqichda ajralib chiqqan 6 guruh o‘z navbatida 2 tadan bo‘linib, 12 guruhni – bir sathning ma’lum bir guruhining ma’lum bir turini tashkil etuvchi guruhchalarini beradi.

IV BOSQICH. Bu bosqichda III bosqichda ajralib chiqqan 12 guruh o‘z navbatida ichki guruhchalarga ajraladi. Jumladan:

1. Fonologik-fonetik sathning fonemalar guruhining unlilar guruhi lablangan va lablanmagan unlilarga;

fonemalar guruhining sonorlar guruhi og‘iz sonor va og‘iz-burun sonorlarga;

undoshlar guruhi esa jaranglig‘jarangsiz juftlilarga va juftsizlarga bo‘linadi.

Supersegment vositalarning fonema va bo‘g‘inga xos vositalar guruhi kvantitativ (cho‘ziqlik) va dinamik urg‘ularga, so‘z va butun gapga xos vositalar guruhi esa fraza va gap ohanglariga ajraladi.

II. Leksik sath bu bosqichda ancha murakkab bo‘linishlarni beradi.

Jumladan:

Olmoshlar bu bosqichda olmoshlarning grammatik tafsiflarida ajratiladigan 6–10 ma’noviy turlariga ajraladi [2]. Mustaqil so‘zlar guruhining atovchi nomlovchi so‘zlar guruhi esa tilshunosligimizda ajratiladigan va qabul qilingan ma’noviy so‘z turkumlariga – fe’llarga, otlarga sifatlarga sonlarga, ravishlarga ajratiladi [3, B.284].

Leksik sathning yordamchi (ko‘makchi) so‘zlar guruhi bu bosqichda tilshunoslik fanimizda ajratiladigan ko‘makchilar, bog‘lovchilar va yuklamalarga bo‘linadi. Faqat bu guruhlarning har birining ichida affiksoidlar, sof ko‘makchi so‘zlar va yarim ko‘makchi so‘zlar alohida-alohida ajraladi [4, B.74]. Bu

tavsifdan ko‘rinib turibdiki, leksik–semantik sath IV bosqich bo‘linishida tilshunosligimizda qabul qilingan va ajratiladigan so‘z turkumlarini beradi.

III. Grammatik vositalar sathining relyatsion vositalar guruhining lug‘aviy shakllar majmuyi bu bosqichda tasniflovchi grammatik kategoriyalarga [5, B.45]:

- a) fe’llar uchun xos bo‘lgan nisbat, fe’l turlari, harakat tarzi shakllariga,
- b) otlar uchun xos bo‘lgan son, kichraytirish-erkalash va shaxsiy munosabat shakllariga,
- v) sifatlar uchun xos bo‘lgan daraja va kuchaytirma shakllariga,
- g) sonlar uchun xos bo‘lgan tartib, dona, jam, qasr, ulush son lug‘aviy shakllariga ajraladi.

Grammatik vositalar sathining relyatsion vositalar guruhining sintaktik shakl yasovchi qo‘sishchalar majmuyi bu bosqichda so‘zlarni bir biriga bog‘lash (egalik va kelishik shakllari) va so‘zga ma’lum bir sintaktik vazifa berish (kesimlik shakllari) kategoriyalariga ajraladi. Lisoniy tizimning V va undan quyi bosqichlarda bo‘linishi fanimizda ancha mufassal tavsiflangan. Leksik sathda bu, asosan, so‘z turkumlarining o‘zbek tilshunosligida takror va takror o‘rganilgan ichki ma’noviy guruhlari, mavzuviy va ma’noviy guruhlarni ajratishga olib keladi [6, B.17].

Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, lisoniy sistema boshdan oyoq birinchi bosqichdan eng quyi bosqichlargacha qat’iy sistemaviy qurilish tabiatiga ega. Hatto alohida bir leksemaning sememalari, ularda semalar tarkibi, sememaning nutqdao‘z va ko‘chma ma’nolarda voqelanishi, nutqiy leksik–semantik variantlarning (LSV) leksema sememasiga munosabati E.Begmatov, B.Jo‘rayev, Sh.Iskandarov, I.Abdurahmonov, R.Yunusov, I.Qo‘chqortoyev, Sh.Rahmatullayev, B.Bafoyev, M.Narziyeva, kabi o‘nlab tadqiqotchilar ko‘rsatib bergenlaridek, sistemaviy tabiatga ega. Shuningdek, fonemalarda invariant-variant munosabatlarda ham [7,B.187], grammatik shaklning umumiyligini va xususiy ma’nolari orasidagi munosabatlarda ham [8,B.58] zikr etilgan tadqiqotchilar tomonidan sistemaviylik mavjudligi ochib berilgan. Bundan biz qat’iy xulosa chiqara olamizki, o‘zbek tili umumiyligini sistema bosqichidan leksikada so‘zning semantik variantigacha, fonologiyada fonemaning variantigacha, grammatikada shaklning xususiy grammatik ma’nosigacha bo‘lgan bosqichlarda, ko‘p pog‘onali iyerarxiyaning barcha bo‘g‘inlarida sistemaviy tabiatga egadir. Endi eng muhim masala: bunday izchil sistemaviylik nimada (yoki nimalarda) namoyon bo‘ladi? Bu juda muhim va ilmiy adabiyotlarda qo‘yilib, aniq javob olmagan muammodir. Bu masalani lo‘nda qilib «tilning sistemaviyligi nimada?» deb yana ham muayyanroq va qat’iroq qo‘yish mumkin.

Asosiy qism. Ilmiy adabiyotlarda tilning sistemaviyligi barcha bosqichlarda til sathlari birliklarining satharo va sathlararo munosabatlarda bo‘lishi, barcha lisoniy vositalarning yagona bir vazifaga – fikrni shakllantirish (kodlashtirish), ifodalash va anglatishga (dekkodlashtirishga) xizmat qilishida, tilning ijtimoiy talablarga o‘z o‘zidan moslasha olishida v.h. deb tushuntiradilar. Albatta, bunda muhim omillardan biri – til tizimining pog‘onaviy qurilishi ham eslatib o‘tiladi. Sanab o‘tilgan omillar, shubhasiz, to‘g‘ri va tilning sistemaviyligini isbotlovchi va ko‘rsatuvchi muhim dalillardandir. Lekin buning barchasi, ta’bir joiz bo‘lsa, til tizimi uchun tashqi yoki vazifaviy omillardir va til sistemasining ichki qurilishi bir xillagini ochib beraolmaydi; (xalqimiz iborasi bilan aytganda, “shap-shap” deydi-yu, “shaptoli” demaydi). Dialektik umumiyligini aniq, ravshan va hammaga osongina tushunarli bo‘lishi kerak. O‘zbek tili fonologiyasi, leksikasi, morfologiyasi va sintaksisining formal-funksional talqin usuli til va lisoniy tizimning barcha bo‘g‘inlarining sistemaviy qurilishini bu tizimning to‘laligicha va har bir bo‘g‘inning bir xil munosabatlari, aniqrog‘i, gipo-giperonimik munosabatlari asosida tashkil topishida va bu gipo-giperonimik munosabatlarning nisbiy dialektik tabiatida ko‘radi.

Ko‘p pog‘onali iyerarxik qurilishli butun lisoniy tizimning barcha bo‘g‘inlari bir xil – gipo-giperonimik munosabatlari asosida tuzilishi til sistemasining ichki butunligini, bo‘g‘inlarning qat’iy pog‘onaviyligini, ulardagagi qat’iy tartibni, pog‘onalararo bog‘lanishlarni ta’minlovchi muhim asosdir. Demak, juda sodda qilib “tilning sistemaviyligi nimada?” degan savolga: “lisoniy tizimning sistemaviyligi uning boshdan oyoq gipo-giperonimik munosabatlari asosida qurilishidadir”, deb javob berish mumkin. Til tizimining qurilishi uchun munalik katta ahamiyat kashf etuvchi gipo-giperonimik munosabatlarning mohiyati nimada, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Shuning uchun bu masala ustida bir muncha to‘xtalamiz.[10, B.45]

Gipo-giperonimik munosabatlarni, giponimiyani o‘rganish – tilshunoslik uchun nisbatan yangi hodisa. Shuning uchun g‘arbda hozirgi kunda Sossyur Kitobidek mashhur bo‘lgan J.Layonzning “Nazariy tilshunoslikka kirish” kitobida “Giponimiya atamasi semantikaning an’anaviy atamalari sirasiga kirmaydi. U “sinonimiya”, “antonimiya” atamalariga o‘xshatilib, yaqinda yasalgan” [9,B.478] jumlasini o‘qiyimiz. Giponimiya o‘zbek tilshunosligida rus tilshunosligidan ko‘ra kengroq va chuqurroq o‘rganilgan; biz “Rus tilida giponimiya” mavzusidagi alohida ishni uchratmadik, vaholanki, bunday ish o‘zbek tilshunosligida,

o‘zbek tili materiallari asosida 80-yillarda Rohat Safarova tomonidan amalga oshirilgan edi [11,B.14]. Keyinchalik M.B.Fayzullayev, G.H.Ne’matova, H.A.Saidova, N.Nishonova, B.Qilichev, E.Qilichevlarning tadqiqotlarida ham giponimiya va gipo-giperonimik munosabatlarga keng o‘rin berildi.

Giponimiya dastlab o‘zbek tilshunosligida leksika doirasida tadqiq etildi. Lekin UGMlarning kategorial va alohida forma bosqichida o‘rganish [12,B.16], sodda va qo‘shma gaplarning minimal qoliplari va ularning lisoniy turlarining tadqiqi [13,B.14] shuni ko‘rsatdiki, kategorial ma’no giperonim sifatida shu kategoriyaning turli shakllarida turlarga bo‘linib, ya’ni giponimlar sifatida voqelanadi; har qanday kategoriyyada – u xoh leksik, xoh fonologik, xoh grammatick bo‘lsin – gipo-giperonimik munosabatlarga o‘xshash aloqalarni ko‘rish mumkin. Albatta, quyidagi uch qatorni qiyoslasak, ularning orasida farq borligini sezamiz (1.-jadval). Bu qatorlardagi farqlar lisoniy sathlararo farqlar bilan bog‘liqdir. Mohiyatan esa daraxt, fonema, bog‘lash vositalari o‘zidan quyida turgan hodisalar bilan jins-tur munosabatlarda turayotganligi shubha tug‘dirmasa kerak. Chunki unli – fonemaning bir turi, tobe so‘zni hokim so‘zga bog‘lash vositalari – bu so‘zlarni o‘zaro bog‘lash vositalarinig bir turi. Xuddi shunday tol ham daraxtning bir turi.

1-jadval.

Giponimik qatorlar

Leksik qatorlar	Fonologik qatorlar	Grammatik qatorlar
<i>daraxt</i>	<i>fonema</i>	so‘zlarni o‘zaro bog‘lash
<i>tol</i>	<i>unli</i>	tobe so‘zni hokim so‘zga bog‘lash
<i>terak</i>	<i>sonor</i>	
<i>qayin</i>	<i>undosh</i>	hokim so‘zni tobe so‘zga bog‘lash

Agar yuqorida keltirilgan uch qatorda biz jins-tur munosabatlari bilan bog‘lanish mavjudligini tan olsak, lisoniy tizimning fonologik-fonetik, leksik, leksik-semantik va grammatick sathlaridagi pog‘onalar o‘zaro gipo-giperonimik munosabatlар bilan bog‘langanligiga shubha qilmasak ham bo‘ladi.

Zero, leksik sathning boshdan oyoq gipo-giperonimik munosabatlар asosida qurilganligi o‘zbek tilshunosligida isbotlangan. Leksik maydon ichida leksemalarning leksik maydonning bosh (yetakchi, dominanta) so‘zidan muayyan ma’noli leksik birlikkacha bo‘lgan sakkiz-o‘n pog‘onali bo‘linish ham gipo-giperonimik munosabatlар asosida yuz berishi G.H.Ne’matovaning (o‘simlik), N.Nishonovaning (hayvon), Sh.Iskandarovaning (shaxs) arxisemali so‘zlar majmuyi misolida yorqin ko‘rsatilgan [14,B.17]. Tilning leksik sathning gipo-giperonimik munosabatlар asosida qurilishini J.Layonz ham taxmin etgan [15,B.480] va hatto, shu asosda tuzilgan lug‘atlardan birini – Peter Roje “Tezaurusi”ning [16,B.401] tahlilini ham bergen edi. Shuning uchun bu sathda gipo-giperonimik munosabatlarning butun tizimini qamrab olishi masalasi yetarli darajada o‘rganilgan deb hisoblashimiz va unga boshqa to‘xtalmasligimiz mumkin.

Fonologik-fonetik sath bevosita ma’no ifodalash bilan bog‘liq emas, u farqlash va ajratishga xizmat qiladi, lisoniy birliklarning moddiy qobig‘ini, substansiyasini belgilaydi. Bu – sathda ham gipo-giperonimik munosabatlarga o‘xshash aloqalar borligi jadvaldan ko‘rinib turibdi. Har holda fonologik-fonetik sath bevosita ma’no ifodalash bilan bog‘liq bo‘lmaganligi sababli bu sathda gipo-giperonimik munosabatlар o‘ziga xosliklarga ega, alohida tadqiq manbayi bo‘la oladi. Lekin jins-tur bo‘linishi ma’lum pog‘onalarni, bosqichlarni tashkil etishi ko‘rilgan materiallardan ham aniq.

Grammatik sath o‘ta umumlashgan va har xil noleksik vositalar (asosan, qo‘shimchalar yordamida) ifodalanadigan grammatick ma’nolar majmuyidir. Leksik ma’nolar ustiga qo‘shiladigan, ustqurma bo‘ladigan o‘ta umumlashgan ma’nolarni ifodalash shu sathning UGMi sanalishi lozim. Bu UGM so‘zning lug‘aviy ma’nosini o‘zgartiruvchi umumlashma ma’nolar (derivatsion qo‘shimchalarga xos) va relyatsion (turli xildagi munosabatlarni ifodalovchi) grammatick ma’nolar uchun giperonim vazifasini o‘taydi.

Relyativ ko‘shimchalar so‘zning ma’nosini tubdan o‘zgartirmay, uning ma’lum bir mantiqiy kategoriyalarga, gap tarkibidagi boshqa birliklarga munosabatini ifodalovchi shakllar majmuyi bir butunlik, bir jins, bir giperonim sifatida quyidagi giponimlarni o‘z ichiga oladi:

a) so‘zning mantiqiy kategoriyalarga munosabatini ifodalovchi, shuning uchun uning lug‘aviy ma’nosini qisman o‘zgartiruvchi, muayyanlashtiruvchi shakllar – lug‘aviy shakllar majmuyi,

b) so‘zning lug‘aviy ma’nosiga ta’sir etmay, ularni o‘zaro bog‘lash, gapda unga ma’lum sintaktik mavqe berishga xizmat qiluvchi sintaktik shakllar majmuyi.

So‘zlarni bir biriga bog‘lab, so‘z birikmalari hosil qilishga xizmat qiladigan sintaktik shakllar majmuyining “So‘zlarni bog‘lash” UGMsi quyidagilar uchun giperonim mavqeyida bo‘ladi:

a) so‘zning sintaktik tobe shaklini hosil qiluvchi, so‘zga sintaktik tobelik mavqeyini beruvchi shakllar – kelishiklar;

b) hokim so‘zni tobe so‘zga bog‘lovchi vositalar – egalik shakllari.

Kelishik kategoriyasining “tobe so‘zni hokim so‘zga bog‘lash” UGMsi konkret kelishiklarning quyidagi UGMlariga nisbatan giperonim mavqeyida bo‘ladi:

- 1) kategoriyaning umumiy namoyandasini, reprezentanti (bosh kelishik),
- 2) tobe ismni aniqlovchi mavqeyida boshqa bir ism bilan bog‘lovchi shakl (qaratqich kelishigi),
- 3) tobe ismni hokim fe‘lga vositasiz to‘ldiruvchi mavqeyida bog‘lovchi shakl (tushum kelishigi),
- 4) tobe ismni hol mavqeyida hokim fe‘l yoki ismgaga bog‘lovchi shakl (o‘rin-payt kelishigi),
- 5) tobe ismni (fe‘Ini) vositali to‘ldiruvchi(hol) mavqeyida hokim so‘zga bog‘lash shakllari (jo‘nalish va chiqish kelishiklari).

Biz bu yerda grammatik sath majmuyining lug‘aviy va sintaktik shakllar to‘plamining so‘zlarini bog‘lash guruhining “tobe so‘zni hokim so‘zga bog‘lash” turining har bir muayyan shakli darajasida gipo-giperonimik munosabatlar zanjiri bilan bog‘lanishini ko‘rib o‘tdik. Derivatsion vositalarga nisbatan ham, lug‘aviy shakl hosil qiluvchi vositalar majmuyiga nisbatan ham shunday amaliyotni G‘.Zikrillayev, A.Nurmonov, Sh.Shahobiddinova, H.Ne’matov, B.Mengliyev, Z.Qodirova v.b.larning shu bo‘limda ko‘rsatilgan ilmiy ishlari asosida bajarish mumkin. Ularni bu yerda takrorlab o‘tirishga hojat yo‘q va juda ko‘p o‘rin va vaqtini talab qiladi.

Lisoniy tizim leksik sathining boshdan oyoq gipo-giperonimik munosabatlar asosida qurilishi ilmiy adabiyotlarda to‘la isbotlangan, grammatik sath ham shunday qurilishga ega ekanligi yuqorida ko‘rsatilgan, fonologik-fonetik sathda ham jins-tur munosabatlariga o‘xshash aloqalar mavjudligiga to‘la asoslar bo‘lgan holatda biz o‘zbek tili lisoniy sistemasi pog‘onaviy (iyerarxik) qurilishga ega bo‘lib, yuqori va quiy pog‘onalar hamisha o‘zaro gipo-giperonimik munosabatlar bilan bog‘lanib, sistemaning ichki, zotiy butunligini ta‘minlaydi, degan hukmga kela olamiz. Bu esa mukammallik, murakkablik, hayotiylik, o‘z-o‘zini boshqaruvchanlik, tarkibiy qismlarining mutanosibligi va muvofiqligi, muhit ta’siriga, ehtiyojlarni qondirishga moslanuvchanlik xususiyatlari bilan faqat odam organizmi bilan qiyoslanishi mumkin bo‘lgan tilimizning umumiyliliklar darajasida naqadar sodda tizimi qurilishga ega ekanligini ko‘rsatadi: butun tizim nisbiy gipo-giperonimik munosabatlardan tuzilgan pog‘onaviylikdan iboratdir. «Tilimizning sistemaviy tuzilishi nimada namoyon bo‘ladi?» degan juda murakkab savolga formal-funksional talqin soddagina qilib: "Uning sathlarning nisbiy gipo-giperonimik munosabatlar asosida qurilishida," deb javob beradi.

Bunda bir narsani esdan chiqarmaslik kerak: lisoniy tizimning o‘zining sathlarga bo‘linishi (ya‘ni biringchi bosqich bo‘linishi) gipo-giperonimik munosabatlar asosida emas, balki partonimik – butun-bo‘lak (kull. – juzv) bog‘lanishlari asosida bo‘ladi. Buning sababi tasavvuf falsafasida ham, dialektikada ham ochib berilgan: lisoniy sistema butun (kull), tilga oid barcha narsalarga nisbatan zoti mutlaqdir. Mutlaqligi uchun u turlarga (xillarga) ega bo‘la olmaydi. Dialektika va sistemaologiya nuqtayi nazaridan esa lisoniy sistema tugal butunlik bo‘lganligi uchun u turlarga emas, tarkibiy qismlargagina (ya‘ni lisoniy sathlarga) ajralishi mumkin. Biz bu yerda atigi uch sath va ularning birliklarini olib ko‘rdik va tilimizda yana boshqa sathlar bo‘la olishini eslatib o‘tdik. Shuning uchun yuqoridagi xulosamizni mukammalroq qilib, tilimizning sistemaviy qurilishi va yaxlitligi uning sathlarga bo‘linishining butun-bo‘lak, sathlarning ichki qurilishining esa giponimik munosabatlar asosida tuzilishi bilan ta‘minlanadi, deb ayta olamiz. Sistema hech qachon bo‘laklarning oddiy yig‘indisiga teng bo‘lmaganidek, lisoniy tizim uning sathlarning oddiy yig‘indisi emas – u sathlar va ularning o‘zaro ko‘p tomonli murakkab, barqaror, qat’iy munosabatlaridan tarkib topadi. Sathlar giponimik munosabatlar asosida quriladi. Lisoniy sistemaning o‘zi esa butun-bo‘lak aloqalariga tayanadi degan hukmda hech qanday ziddiyat yo‘q. Chunki butunning sifatlari bo‘laklar uchun aloqador bo‘lishi shart, lekin bo‘lak haqidagi hukm butunga nisbatan ham haq, deb aytish mantiqiy xato sanaladi [17,B.94]. Shuning uchun lisoniy tizimning o‘zini uning sathlari bilan aralashtirmaslik, tenglashtirmaslik kerak.

Natijalar va uning muhokamasi. Lisoniy tizimning barcha sathlaridagi paradigmatic munosabatlarda belgilig‘belgisizlik behad katta ahamiyatga molikdir. Yangi – sistema va sistemaviy munosabatlarni yangicha tushunadigan tilshunoslik shakllangan va rivojlangan XX asrning o‘rtalaridan boshlanadigan davrdan hozirgacha [18,B.27] uning diqqat markazida lisoniy birliklarning o‘zaro munosabati turib kelmoqda. Lisoniy birliklarning o‘zaro munosabatlari esa ularning o‘zaro o‘xshashlik va farqlarida (nima bilandir o‘xshash va nima bilandir farqlanishida) namoyon bo‘ladi. Mana shunday munosabat oppozitsiya deyiladi. XX asr tilshunosligida lisoniy birliklar orasidagi munosabat tadqiqning bosh masalasi bo‘lganligi sababli oppozitsiya va oppozitivlik unda markaziy o‘rinni egallaydi. Shuning uchun XX asr tilshunosligining 60-yillarning oxirigacha bo‘lgan taraqqiyot xususiyatlarini mufassal tahlil etgan J.Layonz: “Принцип контраста (или оппозиции) является фундаментальным принципом современной лингвистической теории”, ya‘ni “Zidlanish (yoki oppozitsiya) omili hozirgi lingvistik nazariyalarning mag‘zini tashkil etadi”, deb yozadi[19,B.91]. Lisoniy birliklarning mazmun va vazifa tomonlardan mohiyatini oppozitiv

munosabatlar asosida ochish dastlab fonologiya sohasida keng ommalashdi. Fonologiya aniq fanlar yutuqlaridan ijtimoiyotchilar qay yo'sinda yuksak samara bilan foydalana olishlari mumkin ekanligini ko'rsatdi va amalda isbotladi. Privativlik ikki lisoniy birlik orasida shunday munosabatki, unda ikki o'zaro oppozitiv birliklardan birida ma'lum bir belgi qat'iy, barqaror, doimiy bo'ladi va bu birlik shu privativ oppozitsiyaning belgili a'zosi sanaladi. Belgili a'zoga zid turgan lisoniy birlikda shu belgiga nisbatan bunday barqarorlik bo'lmaydi; u shu belgiga ham, unga zid belgiga ega bo'lishi ham mumkin. Bunday a'zo oppozitsiyaning belgisiz a'zosi sanaladi. Masalan, *xo'roz – tovuq*. Bu ikki leksema jins ma'nosi asosida o'zaro oppozitivdir va bu oppozitsiya privativ tabiatga ega, chunki "erkaklik" belgisi xo'roz leksemasi ma'nosida ustuvordir, lekin tovuq bu belgiga nisbatan befarq, neytraldir; u urg'ochi uy parrandasini ham, uning erkagini ham atab kela oladi, ya'ni jins ma'nosi unda ifodalanmagan. Shuning uchun bu privativ oppozitsiyaning belgisi "erkaklik" (yoki "jins ma'nosi aniq"), uning belgili a'zosi *xo'roz*, belgisiz a'zosi esa *tovuq* leksemasidir.

Privativ oppozitsiyaning belgili a'zosi shu belgini alohida ajratish, ta'kidlash zarur bo'lgan o'rinnarda qo'llaniladi, shuning uchun uning qo'llanilish doirasi ham, distributsiyasi ham ancha tor. Shu belgini ta'kidlash zarur bo'lmagan o'rinnarda belgisiz a'zo qo'llaniladi. Chunonchi, *Tovuqlarga o'z vaqtida don ber, qizim, – deb ta'kidladi buvi*. (Omon Jo'ra). Vaholanki, oldingi bayondan ma'lumki, buvining sakkizta tovug'i va ikkita xo'rozi bo'lib, uning butun boyligi shundan iborat edi. Bu matndagi tovuqlar mana shu 8 tovuq va 2 xo'rozga ishora qilib kelmoqda. Yana boshqa holat – tovuqxona, tovuqchilik, tovuqfurush, tovuq kabob. Bu hollarda ham tovuq ham urg'ochi, ham erkak uy parrandasining umumiy atamasi, nomi vazifasida kelmoqda. Shuning uchun privativ oppozitsiyaning belgisiz a'zosining qo'llanilish doirasi va distributsiyasi keng. Bu tavsifdan ko'rinish turibdiki, privativ oppozitivlik munosabatlarida uch atama ishtiroy etadi. Bular:

- 1) belgi – privativ oppozitsiya nima asosida tuzilganligi,
- 2) belgili a'zo – oppozitsiya belgisi ustuvor bo'lgan birlik,
- 3) belgisiz a'zo – oppozitsiya belgisiga nisbatan befarq bo'lgan lisoniy birlik.

R.O.Yakobson va N.S.Trubetskoy bu atamalarни mana shu ma'no va shakllarda qo'llagan edilar.

Oppoziitiv munosabatlar tahlili jahon tilshunosligiga yoyilgach, yuqorida sanab o'tilgan uch tushunchani ifodalash uchun Yevropaning turli tillarida 100 dan ortiq har xil atamalar qo'llanila boshlandi. G'arb tilshunosligiga ko'r-ko'rona ergashish natijasida bunday "yangi" atamalar rus tilshunosligiga ham kirib keldi va rus tilshunosligi orqali o'zbek tilshunosligida ham onda-sonda uchraydi. Bularidan asosiyalar, ancha keng qo'llaniladiganlari, masalan, quyidagilar:

<i>belgi</i>	<i>belgili</i>	<i>belgisiz</i>
<i>marka</i>	<i>markali</i>	<i>markasiz</i>
<i>asos</i>	<i>kuchli</i>	<i>kuchsiz</i>
<i>farq</i>	<i>ijobiy</i>	<i>salbiy</i>
	<i>ustuvor</i>	<i>zaif</i>
	<i>markalashtirilgan</i>	<i>markalashtirilmagan</i>
	<i>to'la</i>	<i>bo'sh</i>
	<i>farqli</i>	<i>farqsiz</i>
	<i>differansiyali</i>	<i>differensiyasiz</i>

R.Yakobson o'zining mazkur maqolasida istehzo bilan rus tilshunoslari va ularga ergashganlarga uqtirib o'tadiki, privativ oppozitsiya uchun zarur bo'lgan har uchalaatama ular tomonidan ruscha **признак** (belgi), **признаковый** (belgili), **беспризнаковый** (belgisiz) so'zlaridan olingan va ruslarga "yangi" atamalarga hech hojat yo'q. Shuning uchun biz ham ishimizda qat'iy ravishdashu uch atamadan foydalanib boramiz.

Nofonologik sath birliklari orasida privativ munosabatlarni o'rganishni R.O.Yakobson yuqorida zikr etilgan "Ma'ruza"si bilan boshlab berdi. R.Yakobson bu "Ma'ruza"da rus tili kelishiklarining umumiy ma'nosi (UGM) masalasini qo'yib, uni privativ oppozitsiyalar orqali ochish mumkinligini ko'rsatdi. R.Yakobsonning bu maqolasi tilshunoslikda kattaahamiyatga ega bo'ldi, chunki bu ishda grammatik shaklning umumiy grammatik ma'nosi (UGM) muammosi qaytadan o'rtaga qo'yildi va bu masala bilan shug'ullangan har bir tadqiqotchi, albatta, bu "Ma'ruza"ga murojaat qiladi. R.Yakobson kelishiklarning UGMning yaxlit vaasosiy nutqiy ma'noviy ko'rinish va qo'llanilishlarni ichiga ola biladigan umumiylig sifatida belgiladi.

Nofonologik sath birliklari orasida privativlik munosabatlarini o'rgangan tilshunoslardan biri slovakiyalik slavist Aleksandr Isachenkovdir. U bevosita R.Yakobson izidan bordi va "Вопросы языкоznания" jurnalida e'lon qilgan ikki maqolasida umumiy grammatik ma'noni privativ oppozitsiyalar usuli bilan ochish mumkinligi masalasini butun jiddiyligida o'rtaga qo'ydi, bu maqolalarida rus tilidagi ko'plik son va shaxs-son ma'nolarini yahu usulda tahlil etdi [20,B.45]. Keyinchalik olim slovak va rus tillari

qurilishining qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan ikki jildli tadqiqotida morfologiya va sintaksis sathlarida grammatick birliklarning umumiy grammatik ma’nosini privativlik usuli bilan ochishning amaliy tatbiqini berdi [21,B.312]. Shundan keyin nofonologik sath birliklari orasida privativlik vao‘zga turdag'i oppozitiv munosabatlarning tahliliga bag‘ishlab juda ko‘p ishlar e’lon qilindi, morfologiya va sintaksisning ayrim masalalariga bag‘ishlangan maqola va monografiyalarda bunday oppozitivlik munosabatlari tahlil va tatbiq etildi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki:

- har bir lisoniy birlikning kamida ikki paradigmaga mansubligi asosida uning ontologik, zotiy belgilari bir privativ oppozitsiyadan emas, balki kamida ikki oppozitiv qatordan chiqariladi; qatorlarning har ikkalasi ham privativ yoki biri privativ, ikkinchisi ekvipotent, gradual bo‘lishi mumkin;
- lisoniy birlikning bir necha qator oppozitsiyalarda ochiladigan belgilari shu birlikning turli qirralari bo‘lganligi sababli uning mohiyati shu belgilarni majmuyi, yig‘indisi sifatida beriladi;
- lisoniy birlikning mana shunday majmuyi sifot sifatida ochilgan mohiyati uning umumiy grammatick ma’nosini deb baholanadi birliklararo lisoniy munosabatlarda UMIS sifatida qaraladi;
- lisoniy birliklarda ma’noviy, vazifaviy, uslubiy v.b. tomonlar (ya’ni leksik-stilistik, morfologik-semantik, leksik-semantik, funksional-sintaktik, konnotativ-stilistik va hatto shakliy tomonlar) birgalikda olinadi;
- til sathlarining umumiy qurilishining gipo-giperonimik munosabatlarga tayanishi qonuniyatidan kelib chiqqan holda lisoniy mikrosistemaning bosh (yetakchi, dominantasi) shaklining mohiyati shakllarning kategoriya ichidagi munosabatidan emas, balki kategoriyalararo munosabatlar asosida to‘la ochiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Nurmonov A. *Shahobiddinova Sh., Iskandarova Sh., Nabieva D. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya.* – T.: Sharq, 2001. –116 b.
2. Ne’matov H. va b. *Ona tili .V,VI,VII sinflar uchun darsliklar.* – T 2000.; Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiev A., Doniyorov X. *Hozirgi o‘zbek adabiy tili. I qism.* –T.: O‘qituvchi, 1980.–586 b. ; *O‘zbek tili grammatikasi. Morfologiya. Tom 1* –T. :Fan, 1972. –612 b.
3. *O‘zbek tili grammatikasi. Morfologiya. Tom 1* –T. :Fan, 1972. –612 b.
4. Amaldagi “*Ona tili*”dan maktab darsliklari.
5. Zikrillaev G’.N. *Fe'lning shaxs, son va hurmat kategoriyalari sistemasi.* –T.: Fan, 1990. –112 b.;
6. Iskandarova Sh.M. *O‘zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o‘rganish* (Shaxs mikromaydoni): *Filol.fan. dok. dis. avtoref.* –T.: TAI, 1999.
7. Abduaizizov A. *O‘zbek tili fonologiyasi va morfologiyasi.* –T.: O‘qituvchi, 1992.–136 b.
8. Ivanov S.N. *K istolkovaniyu mnogoznachnosti grammaticeskoy formi//J. VYa. 1973. № 6.–C.56–61.;* Nigmatov X.G. *Funksional'naya morfologiya tyurkoyazichnih pamyatnikov XI–XII vv. – T.: Fan, 1989.–200 s.;* Nurmonov A. *Shahobiddinova Sh., Iskandarova Sh., Nabieva D. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya.* – T.: Sharq, 2001. –116 b.
9. Layonz Dj. *Vvedenie v teoreticheskuyu lingvistiku.* – M.: Progress, 1978.– 544 s.–478-c.
10. Nigmatova L.X. *Yazik I kultura v lingvokulturologii// Obrazovanie I innovatsionnie issledovaniya. Mejdunarodniy nauchno-metodicheskiy jurnal.* - Buxara,2022 ,8 S. 45
11. Safarova R.G. *Giponimiya v uzbekskom yazike: Avtoref. dis..kand.filol.nauk.* –T., 1990.
12. Mengliev B.R. *Morfologik vositalarning ma’noviy xususiyatlari va sintaktik imkoniyatlari: Filol.fanlari nomzodi ..dis.avtoref.* – T., 1996.
13. Sayfullaeva R.R. *Hozirgi o‘zbek tilida qo’shma gaplarning formal-funksional talqini.* –T.: Fan, 1999. –360 b.
14. Nishanova N. *O‘zbek tilida “hayvon” arxisemali leksemalar maydonining mazmuniy tahlili: Filol. fanlari nomzodi ..dis. avtoref.* – T.: TAI, 2000.
15. Layonz Dj. *Vvedenie v teoreticheskuyu lingvistiku.* – M.: Progress, 1978.– 544 s.–C.: 480–482.
16. Roger Peter. *Roger’s Thesaurus.* – Hormahdsworts. 1953. <https://www.gutenberg.org/ebooks/10681>
17. Rozental' M.M. *Prinsipi dialekticheskoy logiki.* –M.: Prosveshenie, 1960. –360 b.
18. *Osnovnie napravleniya strukturalizma.* –M.: Nauka, 1965. –356 s.
19. Layonz Dj. *Vvedenie v teoreticheskuyu lingvistiku.* – M.: Progress, 1978.– 544 s.–91-c.
20. Isachenko A.V. *Binarnost', privativnie oppozisii i grammaticheskoe znachenie//J.VYa.1963.– №2. –C. 45–50.*
21. Isachenko A.V. *Grammaticheskiy stroy russkogo yazika v sopostavlenii so slovaskim. Chast' I.* – Bratislava, 1965. –456 s.; *Chast' II.* Bratislava, 1965.–510 b.

PHRASEOLOGICAL COMBINATIONS WITH ORDINAL NUMBERS IN ENGLISH

Sadigova Sarjan Islam gizi,
senior lecturer

Nakhchivan State University, Nakhchivan, Azerbaijan
sarjansadigova@gmail.com

Annotatsiya. Maqlada ingliz tilidagi frazeologik birikmalarda ishlatiladigan tartib raqamlari haqida gap boradi. Raqamlar frazeologik birliklarning tarkibiy qismlaridan biri sifatida qo'llanilishi va ular frazeologik semantikani yaratishda alohida rol o'ynashi ko'satilgan. Maqlada ingliz tilidagi tartib sonlarni o'z ichiga olgan 36 ta frazeologik birikmalar tavsiflangan va jumlalarda izohlangan. Ularning o'n ikki iborasi birinchi tartib soni haqida bo'lib, sakkizta ibora ikkinchi tartib soni qo'shilishi bilan tuzilgan. Demak, frazeologik birikmalar ichida birinchi va ikkinchi tartib sonlari mahsuldar sanaladi. Bu iboralarning ma'nolari tekshirilganda ma'lumki, tartib sonlar frazeologizm ichida maxfiy yoki sirli ma'noga ega. Kuzatishlarga ko'ra, tartib sonlar frazeologiyada unumsiz qo'llanilsa-da, ona tilida so'zlashuvchilar ham, chet ellik o'quvchilar ham bunday iboralarni o'rganishga, nutq davomida ulardan foydalanishga intilishadi. Shunday qilib, ular bunday frazeologik birliliklar yordamida o'z nutqlarini boyitishlari mumkin.

Kalit so'zlar: İngлиз тили, son tushunchasi, tartib sonlar, frazeologiya, frazeologik birikmalar, semantika, miqdor, sanash.

Abstract. The article deals with ordinal numerals used within phraseological combinations in English. It is shown that numbers are used as one of the constitutive parts of phraseological units, and they possess a particular role in constructing phraseological semantics. In the article, 36 phraseological combinations containing ordinal numbers in English are described and explained in the sentences. Twelve phrases of them are about ordinal number *first* and eight phrases are formed by adding ordinal number *second*. So it is obvious that *first* and *second* are productive numbers within phraseological combinations. When examining the meanings of these expressions, it is known that ordinal numbers have confidential or mysterious meaning inside phraseologism. The author emphasises that although ordinal numbers are unproductively used in phraseology, both native speakers and foreign learners are eager to learn such phrases and utilise them during their speeches. In this way they can make their speech brilliant using such phraseological units.

Keywords: English, number concept, ordinal numbers, phraseology, phraseological combinations, semantics, quantity, counting.

